

INTERNET, VIRTUAL VA VIZUAL OLAMNING SHAXSGA TA'SIRI

Qadamova Sabohat Davron qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-kurs talabasi

E-mail-qadamovasabohat@313gmail.com

Toshtemirov Rustam Abdurashidovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”

E-mail-rustambek22091985@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi internetning inson hayotidagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda, hayotning bir qismi virtual makonda –ijtimoiy tarmoqlar messenjerlar, saytlar o‘yinlarda sodir bo‘ladi. Inson hayotidagi virtual va real olamlar hozir qutublanib, nomutanosiblik, voqelikdan uzoqlashish, internetga ko‘p kirishish kuzatilmogda.*

***Kalit so‘zlar:** Internet, virtual, vizual olam, o‘yinlar, saytlar, messenjerlar, vizual olamning shaxsga ta’siri.*

INFLUENCE OF THE INTERNET, VIRTUAL AND VISUAL WORLD ON THE PERSON

***Annotation.** In this thesis, the role of the Internet in human life is becoming stronger, part of life takes place in the virtual space - social networks, messengers, sites and games. Virtual and real worlds in human life are now polarizing, there is imbalance, distance from reality, and a lot of access to the Internet.*

***Key words:** Internet, virtual, visual world, games, sites, messengers, influence of visual world on the person.*

Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog‘i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir.

Bugun mamlakatimizda ta’lim rivojini rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish yo‘lida ulkan qadamlar qo‘yilmoqda. Bunda xalqimizning ko‘p yillik tajribasi madaniy-ma’naviy taraqqiyot bilan bog‘liq an’analarini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy fanlarni chuqur va izchil o‘rganishni taqozo etadi. Ijtimoiy fanlar ko‘p qirrali bo‘lib, uning mazmuni jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy va ijtimoiy jarayonlar, milliy an’analar, amaliy faoliyatdagi tajribalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy fanlar yoshlar ta’limini bevosita rivojlantirish salohiyatiga ega, shuningdek, ta’lim masalasi bugungi kunda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat taraqqiyotining muhim ustuvor va strategik masalasidir[1].

Tabiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo‘lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz hizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual Hozirgi zamonning eng asosiy muammolaridan biri hayotning virtuallashib borayotgani va bu narsa ayniqsa, yoshlar hayotida yaqqol ko‘zga tashlanayotganidir. Eng kichik yoshdagi bolalar ham ijtimoiy tarmoq nima ekanligi, undan qanday foydalanish mumkinligini biladi. Inson dunyoda yashashdan maqsadi nima ekanligini bilmasa, u har tomondan yutqazgan hisoblanadi. Unga jon berilgan ekan, u buni ne’mat bilib, o‘z oldiga oliy maqsadlar qo‘yib borishi kerak. Har kuni yaxshi amallar qilib, atrofdagilarga yordam berishga harakat qilishi lozim. Inson birgina maqsad qo‘yib olib, shuni amalga oshirish ilinjida harakat qilib borsa, ketayotgan vaqti ham taqsimlangan bo‘ladi. Natijada, bekorchilikka vaqti qolmaydi. Ilm egallash, kasb tanlash, hunar o‘rganish asosiy maqsadga aylanmas ekan, umr shamolga sovrilaveradi.

Bugun texnika mo‘jizasi bo‘lib ko‘ringan buyum ertaga oddiy matohga aylanib, o‘rniga yuz chandon yaxshisi chiqmoqda. Rivojlanishdan asosiy maqsad turmush

tarzini yangillashtirishdir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida “*Jumladan, matbuot va axborot vositalaridan foydalanishning ham me’yori bo’lishi kerak. Ulardan o’ziga, oilasiga, xalqiga va vataniga foydali bo’ladigan narsalar haqida ma’lumotni olish mumkin. Buning uchun rejali ish yuritish kerak bo’ladi. Ma’lum soatlarda ma’lum narsani ko’rish, o’qish yoki eshitish mumkin*”. Odam yuz yil yashasa ham umr qisqa. Uni ilm olish va o’rganishga sarflagan ma’qul. Virtual olamdan ham ilm yo’lida yaxshilik maqsadida foydalansak, o’z-o’zidan bu qurilmalar bizga xizmat qiladi[2]. Aksincha, biz unga asir bo’lamiz. Virtual olam ijodkori va yaratuvchisi, shubhasiz, inson va uning tafakkuridir. Insonbu jarayonda real voqelikka qaraganda birmuncha erkin va keng imkoniyatlarga egadir. Virtual voqelikda inson faoliyatiga to’siq bo’luvchi omillarning yo’qligi inson ongida mavjud bo’lgan salbiy holatlarni erkin amalga oshirishga imkon beradi. Bu voqelikda aloqa imkoniyatlarining o’sishi individning jamiyatdan ajralib qolishiga, ijtimoiy taraqqiyotdagi bo’hronlar esa noinsoniy mayllarning rivojiga olib keladi. Bu olamda inson kundalik hayotida amalga oshira olmaydigan katta imkoniyatlarga ega bo’lib, bu unga har qanday ko’rinishdagi tasavvurlarini moddiylashtirish uchun sharoit yaratadi.

Internetning salbiy va ijobiy tomonlari.

Zamonaviy dunyoda o’z hayotingizni Internetdan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin[3]. Internet yordamida siz juda ko’p foydali ma’lumotlarni olishingiz mumkin. Bu har bir inson uchun hayotning ajralmas qismiga aylangan butun dunyo bo’ylab tarmoq. Ammo ko’plab mutaxassislar Internet zararli ekanligini ta’kidlaydilar, ammo avval uning foydalarini ko’rib chiqamiz. Dunyoda har kuni kompyuterdan foydalanadiganlar ko’p. Ular o’z hayotlarini butunjahon tarmog’isiz tasavvur qila olmaydilar, aksincha, bu dunyodagi eng katta yutuq deb hisoblaydilar. Axir siz endi kutubxonalarga borishingiz, u yerda bo’lmasligi mumkin bo’lgan ma’lumotlarni qidirishingiz yoki kimdir undan foydalanishini kutishingiz shart emas. Ammo Internetda har bir foydalanuvchi xohlagan hamma narsani topishingiz

mumkin. Internet odamga qanday zarar etkazadi? ko‘z bilan ko‘rish mumkinki, Internet odamga ko‘plab yaxshi va foydali narsalarni olib kelishi mumkin. Ammo, afsuski, uning zarari kam emas. Avvalo, asosiy muammo Internetga qaramlikdir. Odamlarning 10% Internetga qaram ekanligi allaqachon isbotlangan. Ular buni oila, uy, suv va oziq-ovqat kabi muhim va zarur deb hisoblashadi. Ba’zi mamlakatlarda Internetga qaramlik allaqachon milliy muammo sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, eng ko‘p ko‘rilgan muammolar orasida kompyuterda uzoq vaqt qolish tufayli odamlarning ko‘rish qobiliyati yomonlashishi va tayanch-harakat tizimining yomonlashishi mavjud.

Internetning yana bir kamchiligi shundaki, firibgarlar ko‘p. Ular, o‘z navbatida, sizning shaxsiy ma’lumotlaringizni olib, shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishi mumkin. Internetning foydasi va zararini taqqoslasak, foydasi, shubhasiz, zarardan “ko‘proq” bo‘ladi, ammo bu faqat Internetdan oqilona foydalansangiz bo‘ladi[4].

Xulosa: Ushbu tezisda hozirgi kunda hayotimizga kirib kelgan va ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalayotgan virtuallashuvning bizning yashash tarzimizga ta’siri va u mamlakatimiz rivojiga to‘siq bo‘ladigan jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Biz internetda to‘g‘ri foydalanishni o‘rganmasak bo‘lmaydi. Har qanday jamiyatda va har bir ota ona o‘z farzandining tarbiyasiga beetibor bo‘lmasligi lozim. Hozirgi axborot texnologiyalari va shiddat bilan rivojlanishi bolalarning dunyoqarashini torayib borayotganidan dalolat beradi. Ota onalarimiz bolalarini telefonlarini doimiy nazortga olib, tekshirib turishi va turli xil o‘yinlarga kirib o‘ynashlariga chek qo‘yishlari lozim. Xulosa qilib aytganda, mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham o‘zining dolzarbligi bilan ahamiyatli bo‘lib, barkamol avlod tarbiyalashda, o‘sib kelayotgan yosh avlodda chinakam insoniy tuyg‘ularni shakllantirishda, farzandlarimizni umuminsoniy ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalashda, pedagog-murabbiylarning ma’suliyatli va sharafliligi vazifalariga vijdonan yondashishlarida dasturamal bo‘lib xizmat qiladi[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tashtemirov R.A. Pedagogical approaches in education and their importance // Мугаллим хэм узликсиз билимлендирий, №1/1 2022б Pp 93-101.
2. S.Abdurashidov religions.uz
3. Toshtemirov R.A. Dynamic characteristics of the manifestation of a positive attitude towards studying in students. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 14, 2023, Pp 86–92
4. Toshtemirov, R. A. (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187–195.
5. Тоштемиров Р.А. Тарбия фанида педагогик манбалар билан ишлаш // Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo va yechimlari, 2023, 654-657 Б.